

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**ILMIY- TADQIQOT VA ILMIY- PEDAGOGIK
KADRLAR TAYYORLASH BO'LIMI**

AXBOROT XATI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi Rayosatining qarori bilan Namangan davlat universitetining “**NamDU ilmiy axborotnomasi-Научный вестник НамГУ**” jurnali 2019 yildan boshlab quyidagi ixtisosliklar bo'yicha OAK dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritildi:

1. **01.00.00-Fizika-matematika fanlari**
2. **02.00.00- Kimyo fanlari**
3. **03.00.00- Biologiya fanlari**
4. **09.00.00- Falsafa fanlari**
5. **10.00.00-Filologiya fanlari**
6. **13.00.00-Pedagogika fanlari**

Maqola strukturasiga qo'yilgan

TALABLAR

- 1. Maqola muallif (lar)ini Familiya Ismi Sharifi (to'liq yozilishi shart);**
- 2. Muallif (lar)ini ish (o'qish) joyi, lavozimi (to'liq yozilishi shart);**
- 3. Mavzu**
- 4. Annotatsiya va kalit so'zlar**
- 5. Kirish**
- 6. Adabiyotlar**
- 7. Tadqiqot metodologiyasi**
- 8. Tahlil va natijalar**
- 9. Xulosalar**
- 10. Foydalanilgan adabiyotlar**

Maqlolar rasmiylashtirilishiga qo'yiladigan talablar:

1. Maqola Times New Roman shriftida 14 kattalikda, 1.5 intervalda qabul qilinadi;
2. Muallif(lar) ning F.I.Sh. va ish (o'qish) joyi to'liq keltiriladi. Muallifning elektron manzili va telefon raqami keltirilgan bo'lishi shart;

3. Mavzu nomi bosh harflarda va qoraytirilgan holda barcha ma'lumotlar o'zbek, rus, ingliz tillarida bo'lishi shart;
4. Maqolaga annotatsiyasi (maqolaning muxtasar mazmuni va maqsadi) va kalit so'zlari berilishi ShART (o'zbek, rus, ingliz tillarida);
5. Maqolaga havola (snoska)lar [1,2,...] ko'rinishida va maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar (*agar adabiyot nomi o'zbek tilida bo'lsa o'zbek lotin alifbosida, rus tilida bo'lsa kirill alifbosida bo'lishi shart*) sifatida ko'rsatilishi lozim;
6. Rasmlar: Barcha grafik materiallar (chizma, jadval, diagramma, rasm) «Rasm» («Rasm.») deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o'rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
 - 1-rasm. Rasm nomi
7. Rasm matndan yuqori va pastdan bir qatordan bo'sh qoldiriladi. Barcha rasmlarda xavola bo'lishi shart (1-rasm).
8. Jadvallar: «Jadval» so'zi bilan ifodalanib arab raqamlari bilan qayd etiladi. Jadvalning nomlanishi va qayd raqami (nuqtasiz) beriladi va o'ng tomonga to'g'rilanadi, jadvalning nomi keyingi qatorda o'rtadan qoraytirilgan shriftda yoziladi.
9. Maqola 5-7 sahifadan iborat bo'lishi shart;
10. Maqola ilmiy asoslangan bo'lishi hamda maqola muallifidan ilmiy darajasi yuqori bo'lgan yetakchi mutaxassis tomonidan kamida 1 ta taqriz hamda akt ekspertiza bilan, tahrir qilingan holda 1 nusxa qog'ozda va elektron variantda topshiriladi;
11. Maqladagi ma'lumot va dalillarning aniqligi, to'g'riliqi va ko'chirilmaganligi (plagiat) yo'l qo'yilmaganligiga muallif javobgardir.
12. Maqolalar ekspert komissiyasi tomonidan tahlil qilinadi va ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalar chop etiladi;
13. Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va maqolalar muallifga qaytarilmaydi.
14. Maqolalar o'zbek, rus, ingliz tillarida qabul qilinadi;
15. Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqatgina 1 ta maqolasini nashr etiladi.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahrirga yuborilmaydi.

Rasmiylashtirish bo'yicha axborot xati yakunida namuna berilgan. ushuu namunadan foydalanish tavsiya etiladi.

Maqola talabga mos bo'lgandan so'ng nashr uchun to'lov amalga oshiriladi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Namangan shahri Boburshoh ko'chasi 161-uy
NamDU ilmiy tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar
tayyorlash bo'limi.

Maqolalarni quyidagi sayt orqali yuborishingiz
so'raladi

<https://journal.namdu.uz/>.



journal.namdu.uz

Urinov Baxrom Jamoliddinovich
Namangan davlat universiteti dotsenti
Email:urinovbakhrom@gmail.com
Boltabayev Mahmud Toshpo‘latovich
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: makhmud74@mail.ru

УО‘К 159.9(575.1)

OLIY TA’LIMDA TA’LIM SIFATI DIAGNOSTIKASINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Annotatsiya: Zamonaviy ta’lim muassasalarida barcha sohalarda bo‘lgani kabi sifat masalasi birinchi o‘ringa ko‘tarilmoxda. Abituriyentlarni oliy ta’limga jalg etish maqsadidagi kurash muassasalar o‘rtasida ta’lim sifatiga katta e’tibor talab qilmoqda. Bu o‘z navbatida oliy ta’lim muassasasidagi ta’lim sifatini diagnostika qilish va buning natijasida aniqlanayotgan zaif nuqtalarni kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishga yo‘naltiriladi. Ushbu maqolada aynan ta’lim sifatini diagnostika qilish maqsadi, vazifalari, yo‘nalishlari va uning natijalari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, sifat, diagnostika, ta’lim diagnostikasi, diagnostika yo‘nalishlari, omil, standart, mezon.

Уринов Бахром Джамолиддинович
Наманганский государственный университет доцент
Ахмедова Нозима Мамашокировна
Андижанский государственный университет Исследователь

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДИАГНОСТИКИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В современных образовательных учреждениях, как и во всех сферах, на первый план выходит вопрос качества. Борьба за привлечение абитуриентов в высшие учебные заведения требует большого внимания к качеству образования среди вузов. Это, в свою очередь, будет направлено на диагностику качества образования в высшей школе и разработку мер по усилению выявленных слабых сторон. В данной статье рассматриваются цель, задачи, направления и результаты диагностики качества образования.

Ключевые слова: образование, качество, диагностика, образовательная диагностика, направления диагностические, фактор, стандарт, критерии.

Urinov Bakhrom Jamoliddinovich
Akhmedova Nozima Mamashokirovna
Namangan State University Associate Professor

THE MAIN DIAGNOSTICS OF THE QUALITY OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION

Annotation: In modern educational institutions, as in all spheres, the issue of quality comes to the fore. The struggle to attract applicants to higher education institutions requires a lot of attention to the quality of education among universities. This, in turn, will be aimed at diagnosing the quality of education in higher education and developing measures to strengthen the identified weaknesses. This article discusses the goal, objectives, directions and results of diagnostics of the quality of education.

Key words: education, quality, diagnostics, educational diagnostics, directions for diagnostics, factor, standard, criteria.

Kirish

Zamonaviy ta'lim muassasalarida barcha sohalarda bo'lgani kabi sifat masalasi birinchi o'ringa ko'tarilmoqda. Abiturientlarni oliy ta'limga jalb etish maqsadidagi kurash muassasalar o'rtasida ta'lim sifatiga katta e'tibor talab qilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari ta'lim sifatiga etirish bo'yicha jahon tajribasi va amaliyoti bo'yicha o'zlarining yangi yo'nalishlarini joriy etmoqdalar. Sifatni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari, mezonlari hamda oliy ta'limda ta'lim sifatini ta'minlashning chora-tadbirlari olib borilmoqda. Zero, mamlakatning oliy ta'lim muassasalari sifatini ta'minlash va yaxshilash nafaqat uning ijtimoiy va iqtisodiy farovonligining kaliti, balki uning xalqaro miqyosdagi mavqeiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil ham bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Oliy ta'lim tizimida ta'limning sifat bosqichiga ko'tarilishi bo'yicha dunyodagi yetakchi olimlar o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab o'z izlanishlarini olib borishgan. Ushbu izlanishlar asosan ta'lim jarayonining ijtimoiy ehtiyojlarini o'rghanishga qaratilgan bo'lib, rus olimlaridan F.R.Filippov, M.N.Rutkevich, V.L.Livovskiy va G.F.Kusevlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, AQSH olimi Richard I.M. "The Quality Movements in Higher Education in the United States" (1996) maqolasida Amerika Qo'shma Shtatlari oliy ta'lim muassasalarida sifatning harakatlanishi bo'yicha o'z fikrlarini bayon etgan. Rossiyalik olim Yegorova Y.A. "(2008) maqolasida oliy ta'limning sifati muammolarini yuzaga kelishi sabalari va omillarini tadqiq etgan hamda xulosalar bergen. Bangladeshlik olim Naureen Rahnuma "Evolution of quality culture in an HEI: critical insights from university staff in Bangladesh" (2020) o'z ilmiy qarashlarini sifat masalasining yangi bosqichini bayon etish orqali aks ettirgan bo'lib, Bangladesh oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini kafolatlash va sifat madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholash tizimi muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsifланади. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini reytingini aniqlash mezonlari tahlili

qilindi va rivojlangan davlatlar mezonlari bilan solishtirildi. Oliy ta'lim sifatini baholash bo'yicha yondashuvlar o'rganildi.

Tahlillar va natijalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalari oldiga ta'lim tizimini tubdan isloh qilish vazifasini qo'ydi. Qaror mohiyati O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida ta'limni zamon talablari bo'yicha tashkil qilish hamda iqtisodiyot tarmoqlariga talab asosida kadrlar tayyorlashni maqsad qilib qo'ydi.

Oliy ta'limda ta'lim sifati o'zi nima?

Oliy ta'lim sifati nafaqat O'zbekiston, balki, rivojlangan mamlakatlarda o'ttiz yildan ortiq vaqt davomida juda faol davom ettirib kelanayotgan eng dolzarb muammolardan biridir. Sifat ta'lim sohasining ijtimoiy ahamiyatini belgilovchi asosiy parametrdir. Ta'limning iqtisodiy, ijtimoiy, kognitiv va madaniy jihatlarini o'z ichiga olgan sifat tushunchasi ta'lim faoliyati natijalarining ajralmas xarakteristikasi sifatida qabul qilinish mumkin. Barcha asosiy funksiya va faoliyat sohalarini, jumladan, kadrlar sifati, ta'lim dasturlari, talabalarga ta'lim berish, oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi kabilarni qamrab oladi.

Xorijiy olimlarning fikriga ko'ra [1] oliy ta'limda sifat quyidagi omillar uyg'unligidadir:

- 1) maxsus jarayon, talabalarning bitiruvda ijobiy natijalarga erishishlari.
- 2) ta'lim jarayoni doirasidagi takomillashtirish jarayoni
- 3) maqsadlarga muvofiqligi, ya'ni, iste'molchining so'rovlari, talablari va umidlarini bajarish.
- 4) investitsiyalar natijasi;
- 5) talabalar uchun imkoniyatlar yaratish va yangi bilimlarni rivojlantirishdagi o'zgarishlarni bildiruvchi transformatsiyalar.

Shundan qilib, juda ko'plab mamlakatlar oliy ta'lim sifatini oshirish bilan jadal shug'ullanib kelmoqdalar va bunday mamlakatlar soni doimiy ravishda ortib bormoqda.

Ta'lim sifatini oshirishni o'z oldigan maqsad qilib qo'ygan davlatlarda oliy ta'lim sifatiga yuqori talablar qo'yiladi. Chunki u kasbiy ta'lim tuzilmasida alohida o'rin tutadi. Oliy ta'lim butun ta'lim va fan tizimini takror ishlab chiqarish mexanizmi hisoblanadi. SHuning uchun oliy ta'limning yangi sifatini shakllantirish tendensiyasi barcha uzlusiz ta'lim tizimidagi o'zgarishlar jarayonlaridan ustun bo'lishi kerak.

Oliy ta'lim tizimi doirasida ushbu sohaga bevosita va bilvosita aloqador bo'lgan turli ijtimoiy guruhlar uning sifatini baholash muammosiga duch kelmoqdalar: oliy ta'lim muassasalari reytingini yaratish va ularni aniqlashdan manfaatdor boshqaruvi organlari (vazirliklar, idoralar va boshqalar); oliy ta'lim muassasalari ma'muriyati bir tomondan yuqori organlarga hisobot bersa, ikkinchi tomondan, o'z ta'lim muassasasining nufuzi oshishidan manfaatdor; muayyan oliy o'quv yurti talabalar, abiturientlar va ularning ota-onalariga ega bo'lishni istagan

ta’lim sifati haqida aniq ma’lumotlar berish; va nihoyat, bizning butun jamiyatimiz ta’lim sifatini oshirishdan manfaatdor -ssivilizatsiyaning asosiy oqimida rivojlanish yuqori sifatli ta’lim doirasidan tashqarida mumkin bo‘lishi emas.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan oliy ta’lim muassasalari reytingini yaratish masalasi mamlakatimizda ham yangilik emas. Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan dunyoning eng kuchli oliygochlari mingtalik ro‘yxatiga kiritish maqsadida oliy ta’lim muassasalarining reytinglarini aniqlab borish tizimi bir necha yildan beri amalga oshirib kelinmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 467-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning [3] 2- ilovasi bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash Mezonlari tahlilida ayrim indikatorlarga nisbatan ballarning taqsimlanishida nomutanosibliklar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Mezonning professor-o‘qituvchilarining ilmiy faoliyatini baholashga qaratilgan bиринчи bo‘limida respublika ilmiy jurnallaridagi ilmiy maqolalarga ham, chop etilgan monografiyalarga ham bir xilda 2 balldan berilgan. Zero, ilmiy maqola hamda monografiyalarning tarkibiy va ilmiy jihatlardan orasida katta farq mavjud. Bundan tashqari, ixtiro, foydali modelъ, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari uchun olingan patentlar (tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan hujjatlar asosida) uchun atiga 1 ball berilgan bo‘lib, ushbu patentni olish jarayoni kamida 3 yildan 5 yilgacha bo‘lgan oraliqni tashkil etishi va uning mazmuni berilayotgan ballarga nisbatan nomutanosib. Keyingi bandda ko‘rsatilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron ma’lumotlar bazalari uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan turli materiallar uchun ajratilgan ball ham 1 ga teng. Vaholanki, qiymat jihatidan bu ixtiro, foydali modelъ, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari uchun olingan patentlar bilan tenglab qo‘yilgangi ajablanarli.

Solishtirish uchun shuni ta’kidlash mumkinki, Rossiya oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlashda ta’lim sifati, ish beruvchilar tomonidan bitiruvchilarga bo‘lgan talab va ilmiy faoliyat asosiy mezon sifatida qabul qilingan. Demak, reyting uchun bиринчи o‘rinda ta’lim sifati muhim rol o‘ynaydi.

Aynan Rossiya oliy ta’lim muassasalarida sifatli ta’lim olish shartlarini baholash uchun tahlilchilar to‘rt guruhga bo‘lingan 16 meztonni tanladilar: o‘qitish darajasi, xalqaro integratsiya, resurslar mavjudligi va abituriyentlar orasida universitetga bo‘lgan talab. [4]

O‘qitish darajasi har 100 o‘quvchiga nechta o‘qituvchi to‘g‘ri kelishi va o‘qituvchilarining necha foizi davlat Fanlar akademiyalariga a’zo ekanligi asosida baholandi. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkichga universitet talabalarining xalqaro olimpiadalardagi g‘alabalari soni va fanlarni o‘qitish darajasi ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro integratsiya bo‘yicha eng yuqori ballni kunduzgi ta’lim bo‘yicha chet ellik talabalar ulushi eng ko‘p bo‘lgan universitetlar, shuningdek, kamida bir semestrni xorijda amaliyot o‘tagan va o‘qishni tamomlagandan so‘ng ikkita diplom olgan talabalar oldi.

Universitetning resurslar bilan ta’minlanganligi moliyaviy etarlilik, universitetga odamlar va kompaniyalar tomonidan bepul moddiy yordam ko‘rsatish hajmi va ekspert xulosasidan iborat.

Abiturientlar o‘rtasidagi talab o‘rtacha o‘qish to‘lovi, olimpiadalar ulushi va byudjet va kontraktga kirish uchun o‘rtacha ball asosida hisoblab chiqilgan.

Oliy ta’lim sifatini baholash bo‘yicha yondashuvlar juda ham ko‘p va ko‘rsatkichlar takomillashib boraveradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, garchi ekspertlar baholash tartib-qoidalari nomukammalligini bilishsa ham sifat baholangan va baholanaveradi. Bu ajablanarli holat emas. Amerikalik R.Millerning “Amerika Qo‘shma Shtatlarida oliy ta’lim sifati uchun harakat” nomli maqolasida keltirgan fikriga ko‘ra, umumiyligida sifat menejment vaqt o‘tishi bilan mashhur bo‘lgan ko‘plab boshqaruv strategiyalaridan biri bo‘lib, strategiyalar keladi va ketadi. Odadta har birining dolzarbliги etti yildan ortiq davom etmaydi. Keyin yangi g‘oyalar modaga kiradi, chunki istalgan natijaga erishishning boshqa usullarini izlash mavjud. [2]

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarining paydo bo‘lishi, raqobatning kuchayishi munosabati bilan ta’lim sifati muammosi dolzarb bo‘lib bormoqda. Ta’lim sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqishning dolzarbliги shundan iboratki, uni zamonaviy sharoitda fanlarga taklif qilingan maxsus ijtimoiy buyurtma sifatida baholash mumkin.

Bangladesh davlatida ta’lim sifatini ta’minlashning o‘ziga xos bosqichiga erishildi. Bu mamlakatda notijorat, xususiy universitetlarda akademik va ma’muriy rahbarlar tomonidan amalga oshirilgan sifat madaniyati tajribasini baholaydi. Davlat tomonidan belgilangan milliy sifat tizimi joriy etilgan. Har bir Bangladesh OTMining 2006–2026 yillarga mo‘ljallangan oliy ta’lim strategik rejasida ko‘rsatilgan talablarga javob berishini va oliy ta’limga bo‘lgan qarashlarini amalga oshirishini ta’minlash uchun institutsional sifat kafolati bo‘yicha strategiya ishlab chiqilgan. Oliy ta’lim muassasalari bir vaqtning o‘zida ichki o‘z-o‘zini baholashni ko‘rib chiqish va monitoringni hamda tashqi sifat kafolatini o‘z ichiga oladi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlash va uni oshirish masalasi har bir davlatning ta’lim bo‘yicha olib borayotgan siyosatiga qanchalik muvofiqligi bilan bir-biridan farqlanadi. Jumladan, O‘zbekistonda ham ta’lim sifatini ta’minlashning mo‘tadilligiga erishish qaysidir ma’noda birinchi bosqichda ko‘zlangan maqsad bo‘lsa, keyingi bosqichlarda ta’lim sifati kafolatini ta’minlash asosiy vazifasi sifatida bo‘lishi lozim. Shundagina davlat, notijorat hamda xususiy oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida raqobat yuqori tafovut bilan farqlanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Егорова Ю.А. Проблема качества высшего образования/ Современные научноемкие технологии. – 2008. – № 1 – С. 43-44
2. Richard I. Miller. The Quality Movements in Higher Education in the United States // Higher Education in Europe. — 1996. — Vol. XXI. № 2—3.
3. <https://lex.uz/docs/4371479>
4. <https://raex-rr.com/education/universities/rating-of-universities-by-studying-conditions>